

**Statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida
hisobot topshiruvchi subyektlarni to'liq qamrab olinishini
ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish
Reglamenti**

*Mazkur Reglamentga Dalat statistika
qo'mitasining 2022 -yil 22 -apreldagi 12 –son qarori
bilan o'zgartirish kiritilgan*

Statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to'liq qamrab olinishini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish reglamenti (keyingi o'rinlarda – Reglament) respublika hududida joylashgan tashkilotlarni statistika hisobotlari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan hamda elektron shakldagi statistika hisobotlarini yig'ish va qayta ishlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish jarayonida Davlat statistika qo'mitasi (keyingi o'rinlarda – Qo'mita) boshqarmalari va hududiy statistika organlarining o'zaro hamkorliklari mexanizmini va ularning javobgarligini belgilaydi.

Ushbu Reglament elektron shaklda taqdim etilmaydigan (ya'ni tarqatilishi cheklangan grifiga ega bo'lgan), shuningdek 15 tadan kam tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlarini yig'ish va qayta ishlashni tashkil etishga tadbiq etilmaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglamentda quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

maqsadli jamlanma – statistika hisobotining tegishli shakli bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etuvchi hisobot topshiruvchi subyektlarning (yuridik shaxslar yoki ularning alohida bo'linmalari) ro'yxati;

yagona bixillashtirilgan ro'yxat (keyingi o'rinlarda – YaBR) – yuridik shaxslarning statistika hisobotining tegishli shakli bo'yicha kuzatuvga tushgan alohida bo'linmalari (vakolatxonalari va filiallari) ro'yxati;

bazaviy hisobot ko'rsatkichlari – statistika hisoboti shaklining hisobot topshiruvchi subyektning faolligini aniqlash uchun foydalaniladigan (nolga teng bo'lmagan ko'rsatkichlarga ega bo'lgan) asosiy ustunlari yoki satrlari ma'lumotlari;

tarmoq boshqarmasi – Qo‘mita markaziy apparatining statistika hisoboti shakli bo‘yicha axborotlarni shakllantirishga mas’ul bo‘lgan boshqarmasi.

2. Statistika hisobotining har bir shakli bo‘yicha qat’iy belgilangan maqsadli jamlanma, tegishli tarmoq boshqarmasi tomonidan, mazkur shaklning manzilli qismida ko‘rsatilgan ta’riflarga qat’iy muvofiq holda, har yili (tasdiqlangan jadval bo‘yicha) elektron shaklda, quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (keyingi o‘rinlarda - KTYaDR) ma’lumotlari;

b) YaBR;

v) Statistika hisoboti tegishli shakllarining bazaviy hisobot ko‘rsatkichlari;

g) boshqa davlat organlaridan olingan tashkilotlar ro‘yxati (masalan, Hukumat dasturlari monitoringiga kiritilganlar, ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishni amalga oshiruvchilar, faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha litsenziyaga ega bo‘lganlar va h.k.).

3. Statistika hisobotining tegishli shakli bo‘yicha YaBRni tuzish, maqsadli jamlanmani shakllantirish muddatlaridan kelib chiqqan holda, tegishli tarmoq boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

YaBRni yuritish, qayta ko‘rib chiqish, YaBRga alohida bo‘linmalarni kiritish (chiqarish) va ularga klassifikatsiya ko‘rsatkichlarini biriktirish tarmoq boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning YaBRga kiritilgan alohida bo‘linmalariga klassifikatsiya ko‘rsatkichlarini biriktirish, ushbu yuridik shaxslarning identifikatsiyalashtirish va klassifikatsiya ko‘rsatkichlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

2-bob. Statistika hisoboti shakllari bo‘yicha qat’iy belgilangan maqsadli jamlanmani shakllantirish tartibi

4. Tarmoq boshqarmalari, har yili 10- dekabrgacha bo‘lgan muddatda, har bir statistika hisoboti shakli bo‘yicha maqsadli jamlanmani shakllantirish muddatlari yuzasidan takliflarni Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etadilar.

5. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi, har yili 25 dekabrda kechiktirmagan holda, keyingi yil uchun qat'iy belgilangan maqsadli jamlanmani shakllantirish va manbalari (mazkur Reglamentning 2-bandiga muvofiq) bo'yicha maqbullashtirilgan jadvalni tayyorlaydi, tarmoq boshqarmalari hamda mutasaddi Rais o'rinbosarlari bilan kelishilishini tashkil etadi va tasdiqlash uchun Qo'mita raisiga kiritadi.

Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi tasdiqlangan jadvalni Qo'mita markaziy apparatining tegishli boshqarmalariga yetkazadi va mazkur jadvalning bajarilishi monitoringini olib boradi.

6. Kelgusi yil uchun maqsadli jamlanmani shakllantirishda, joriy yildagi statistika hisoboti shakli bo'yicha oxirgi marta qabul qilingan hisobotlar bazasidan olingan yuridik shaxslar ro'yxati asos sifatida foydalaniladi.

Agar maqsadli jamlanma, mazkur Reglament 2-bandining:

a) kichik bandida ko'rsatilgan manbadan foydalangan holda shakllantirilsa – KTYaDR ma'lumotlar bazasidan;

b) kichik bandida ko'rsatilgan manbadan foydalangan holda shakllantirilsa – tegishli statistika hisoboti yoki ushbu hisobotning oylik va choraklik shakli bo'yicha oxirgi marta qabul qilingan hisobotlar bazasidan olingan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari (vakolatxonalari va filiallari) ro'yxatidan;

v) kichik bandida ko'rsatilgan manbadan foydalangan holda shakllantirilsa – statistika hisoboti tegishli shaklining ushbu maqsadli jamlanmani shakllantirish uchun zarur bo'lgan bazaviy hisobot ko'rsatkichlaridan (masalan, yillik aniqlashtirilgan ma'lumotlarni yig'ish uchun oylik (choraklik) shaklning yoki narx ma'lumotlarini yig'ish uchun sanoat sohasi bo'yicha hisobot shaklining bazaviy hisobot ko'rsatkichlari asos bo'lsa);

g) kichik bandida ko'rsatilgan manbadan foydalangan holda shakllantirilsa – boshqa davlat organlaridan olingan tashkilotlar ro'yxatidan foydalangan holda tarmoq boshqarmasi tomonidan shakllantiriladi.

7. Statistika hisobotining har bir shakli bo'yicha maqsadli jamlanmani to'g'ri va to'liq shakllantirish uchun, barcha manbalar bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar tarmoq boshqarmasi tomonidan KTYaDRning so'nggi davr uchun ma'lumotlar bazasi bilan solishtiriladi.

Solishtirish jarayonida:

manbalar bo'yicha ro'yxatga kiritilgan hisobot topshiruvchi subyektlarning faollik holatiga aniqlik kiritiladi;

oldingi davrlar uchun mavjud bo'lgan hisobot ma'lumotlari bazasi asosida ro'yxatga kiritilgan hisobot topshiruvchi subyektlarning identifikatsiyalashtirish ko'rsatkichlari (yuridik shaxsning nomi, korxona va tashkilotlarning umumiy tasniflagich kodi (KTUT), soliq to'lovchining identifikatsiyalashtirish raqami (STIR)) hamda klassifikatsiya ko'rsatkichlarining (asosiy faoliyat turining xarakteri, joylashgan joyi(pochta manzili), tashkiliy-huquqiy shakli, kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tuzilmasiga kirishi) KTYaDR ma'lumotlar bazasiga mosligi aniqlashtiriladi;

hisobot topshiruvchi subyektlarni maqsadli jamlanmaga qo'shimcha kiritish (chiqarish)ning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

8. Solishtirish natijalariga ko'ra, KTYaDR ma'lumotlar bazasi bilan tafovutlar aniqlanganda, tarmoq boshqarmasi Statistika registrlarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga KTYaDRdagi statistika kodlarini (tashkilotlar ro'yxatini) o'rnatilgan tartibda aniqlashtirish to'g'risida elektron bildirishnoma beradi.

Statistika registrlarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi yuzaga kelgan tafovutlarga aniqlik kiritadi va natijalari to'g'risida tarmoq boshqarmasiga elektron tarzda ma'lum qiladi.

9. Maqsadli jamlanmani aniqlashtirish bo'yicha ishlar, oylik, choraklik va boshqa davriylikdagi shakllar bo'yicha hisobot yili uchun birinchi hisobotlar yig'ishdan oldin 15 kundan, yillik shakllar uchun –1- fevraldan kechiktirmasdan tugatilishi lozim.

Ba'zi hollarda, taqdim etish davriyligidan kelib chiqqan holda istisno tariqasida, ayrim yillik shakllar uchun maqsadli jamlanmani aniqlashtirish bo'yicha 1- fevraldan keyingi muddat ham belgilanishi mumkin.

10. Aniqlik kiritilgandan so'ng, maqsadli jamlanma qat'iy belgilangan deb hisoblanadi va tarmoq boshqarmalari tomonidan mazkur Reglamentning 7-bandiga muvofiq tasdiqlangan jadvalda belgilangan muddatlarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasiga elektron bildirishnoma orqali beriladi:

ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotga kiritish;

hisobot topshiruvchi subyektlarni ular uchun tadbqiq etilayotgan hisobotlar to'g'risida Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali xabardor qilish;

qabul qilinayotgan hisobotlarning to'liqligini avtomatlashtirilgan holda nazorat qilish uchun.

Statistika hisobotlarni yig'ish, maqsadli jamlanmaga muvofiq holda elektron shaklda amalga oshiriladi.

11. Statistika registrilarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi, har oyning beshinchi sanasiga qadar, KTYaDR ma'lumotlarining yangilangan ro'yxatini (tashkil topish, qayta tashkil topish, tugatish, yuridik shaxslarning faolligi yoki faoliyatining o'zgarganligi, KTUT, STIR, TXSh kodlari va h.k.) elektron shaklda tayyorlaydi va lokal korporativ tarmoq ichida tarmoq boshqarmalari uchun o'rnatilgan elektron manzilda joylashtiradi.

12. Tarmoq boshqarmalari har oyning beshinchi sanasida elektron manzilga murojaat qilib, elektron xabarnoma tahlili asosida maqsadli jamlanmaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishning maqsadga muvofiqligini aniqlaydilar.

13. Maqsadli jamlanmaga yil davomida qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yoki undan hisobot topshiruvchi subyektlarni chiqarish, faqat tarmoq boshqarmasi boshlig'ining elektron bildirishnomasiga asosan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Maqsadli jamlanmaga hududiy statistika organlari tomonidan o'zgartirishlar kiritilishiga ruxsat etilmaydi.

14. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi elektron bildirishnoma kelib tushgandan so'ng bir ish kun muddat ichida hisobot ma'lumotlarini qabul qilish va qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlardagi hamda Qo'mita rasmiy saytidagi hisobot topshiruvchi subyektlar ro'yxatiga tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

15. Tarmoq boshqarmalari maqsadli jamlanmadagi o'zgarishlar haqida hududiy statistika organlarining tegishli bo'linmalarini xabardor qiladilar hamda keyingi hisobot davrlari uchun davlat statistika hisobotini yig'ishda o'zgartirilgan maqsadli jamlanmaning qo'llanilishini nazorat qiladilar.

Hududiy statistika organlari maqsadli jamlanmaga kiritilgan tashkilotlarni tegishli hisobotning ularga tatbiq etilgani to'g'risida elektron xabarnoma yoki telefon aloqasi orqali xabardor qilishlari lozim.

3-bob. Statistika hisobotlarini to'liq hajmda yig'ishni ta'minlashda Qo'mita bo'linmalarining o'zaro hamkorligini tashkil etish

16. Statistika hisobotlarini elektron shaklda qabul qilish maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotdan foydalangan holda davlat statistika organlari tomonidan ta'minlanadi.

Ish hajmi ko'lamini hisobga olgan holda, hisobotlarni elektron shaklda qabul qilish ishlari hududiy statistika organlari xodimlari bilan bir vaqtning o'zida Qo'mita markaziy apparati xodimlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

17. Statistika hisobotini taqdim etish tartibi buzilganda, hududiy statistika organlari:

ushbu holatlarga aniqlik kiritgan holda hisobot topshiruvchi subyektlardan hisobotlarni qabul qilib olish;

statistika sohasidagi qonun hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarni amalga oshirish;

Statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq ma'muriy jazo choralari qo'llash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'radilar.

18. Hisobot topshiruvchi subyektlar tomonidan hisobotlarning bazaviy hisobot ko'rsatkichlari to'ldirilmagan holda taqdim etilganda, hududiy statistika organlari uch kun muddatda ko'rsatkichlarning yo'qligi sabablarini (elektron

xabarnoma yuborish yoki telefon orqali) aniqlaydilar, zarur hollarda, soliq organlaridan hisobot topshiruvchi subyektning faollik holatini aniqlaydilar.

Aniqlash natijalariga ko'ra, Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida tegishli statistika hisoboti ma'lumotlarini qayta ishlash uchun Qo'mitaga belgilangan muddat tugagunga qadar, Qo'mitaning tegishli tarmoq boshqarmasiga 1-ilovaga muvofiq tahliliy jadvalni yuboradilar.

19. Hisobot topshiruvchi subyekt tomonidan KTYaDRda uning nafaol holati (faoliyat ko'rsatmayotgan, harakatsiz holatda bo'lgan, tugatilgan) munosabati bilan bazaviy hisobot ko'rsatkichlari to'ldirilmagan hollarda, tarmoq boshqarmalari bu haqda, bir kun muddatda, Statistika registrilarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasiga bildirishnoma orqali xabar beradilar.

20. Statistika registrilarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi tarmoq boshqarmalarining bildirishnomasiga asosan hisobot davridan keyingi bir oy davomida, ma'lumotlar taqdim etmagan (bazaviy ko'rsatkichlarni to'ldirmagan) tashkilotlarning faollik holatiga Adliya vazirligi tomonidan 2014- yil 12- iyunda 2594-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Reg-System"da ishlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma asosida aniqlik kiritadi va tarmoq boshqarmasiga aniqlash natijasi bo'yicha bildirishnoma orqali xabar beradi.

21. Tarmoq boshqarmalari, Statistika registrilarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasining aniqlash natijasi bo'yicha bildirishnomasi asosida maqsadli jamlanmaga aniqlik kiritishning maqsadga muvofiqligini hal etadilar va maqsadli jamlanmaga o'zgartirishlar kiritish zarur bo'lganda bu haqda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasiga tegishli elektron bildirishnoma taqdim etadilar.

22. Maqsadli jamlanmaga zarur o'zgartirishlar kiritish mazkur Reglamentning 13-15 bandlarida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Statistika hisobotlarini to'liq yig'ilishini nazorat qilish jarayonida Qo'mita bo'linmalarining o'zaro hamkorligini tashkil etish

23. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi statistika hisoboti shaklini taqdim etish muddati tugaganidan keyingi ish kunida, avtomatik tartibda kelib tushgan elektron

hisobotlar sonini hududlar kesimida aniqlaydi va tarmoq boshqarmasiga taqdim qiladi.

24. Tarmoq boshqarmasi:

bir kun muddatda, maqsadli jamlanmani kelib tushgan elektron hisobotlar soni bilan solishtiradi. Solishtirish natijalariga ko'ra, maqsadli jamlanmaga kiritilgan hisobot topshirmagan tashkilotlar ro'yxatini (keyingi o'rinlarda Hisobot topshirmaganlar ro'yxati) shakllantiradi va Statistika registrilarini yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi bilan birgalikda Hisobot topshirmaganlar ro'yxatiga kiritilgan tashkilotlarning faollik holatiga aniqlik kiritadi. Aniqlik kiritish natijasiga ko'ra Hisobot topshirmaganlarning to'g'rilangan ro'yxatini tayyorlab, hududiy statistika organlariga yetkazadi;

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida umumlashtirilgan ma'lumotni tayyorlash bo'yicha o'rnatilgan muddatgacha, hududiy statistika organlari tomonidan Hisobot topshirmaganlarning to'g'rilangan ro'yxatiga kiritilgan subyektlardan hisobotlarni qabul qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

hisobot yili boshidan miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, lekin joriy davr uchun hisobotni shakllantirish vaqtida faoliyat ko'rsatmayotgan yoki tugatilgan tashkilotlarning hisobot ma'lumotlarini yig'ma ko'rsatkichlarga kiritilishini ta'minlaydi;

har bir statistika hisoboti shaklini taqdim etish muddati tugaganidan keyingi ikkinchi ish kunidan boshlab, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturida tegishli statistika hisoboti ma'lumotlarini qayta ishlash uchun Qo'mitaga belgilangan muddat tugagunga qadar, har kuni ushbu hisobot shakli bo'yicha hisobot taqdim etmagan tashkilotlar holati to'g'risida 2-ilovaga muvofiq elektron shaklda tahliliy ma'lumotni tayyorlab, mutasaddi Rais o'rinbosari va Qo'mita raisiga taqdim etib boradi.

25. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi, statistika hisoboti shaklini taqdim etish muddati tugaganidan keyingi ish kunidan boshlab, har kuni, 3-ilovaga muvofiq har bir statistika hisoboti shakli bo'yicha ma'lumotlarni yig'ishning to'liqligini ta'minlash holati to'g'risida hududlar kesimidagi ma'lumotni shakllantirib, mutasaddi Rais o'rinbosari va Qo'mita raisiga taqdim etib boradi.

26. Hududiy statistika organlari statistika hisobotini o'z muddatida taqdim etmagan subyektlarga ma'muriy choralar ko'rish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

Bunda tadbirkorlik subyektlariga ogohlantirish xatlari orqali hisobotni taqdim etish uchun 30 kun muddat beriladi. Ushbu muddatda statistika hisoboti taqdim etmagan etilmagan taqdirda tadbirkorlik subyektiga chaqiruv xati yuborilib, ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

Boshqa subyektlarga esa to'g'ridan-to'g'ri chaqiruv xatlari yuborilib, ma'muriy huquqbuzarlik bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

27. Mazkur Reglamentga qat'iy rioya qilgan holda statistika hisobotlari yig'ishning to'liqliligini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun Qo'mita markaziy apparati boshqarmalari va hududiy statistika organlari boshliqlari shaxsan javobgardirlar.

28. Hisobot topshiruvchi subyektlarning to'liq qamrab olinishini ta'minlagan holda statistika hisobotlarini qayta ishlashni tashkil qilish yuzasidan ishlarni nazorat qilish, o'zlari mutasaddi bo'lgan bo'linmalari va statistika faoliyati yo'nalishlari bo'yicha tegishli Rais o'rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

29. Statistika hisoboti shakllari bo'yicha qat'iy belgilangan maqsadli jamlanmani shakllantirish, hisobot shakllarini to'liq yig'ishni ta'minlashda hamda uni nazorat qilish jarayonida qo'mita tizimi bo'linmalarining o'zaro hamkorlik tartibi mos ravishda 4,5,6-ilovalardagi sxemalar asosida amalga oshiriladi.

Statistika hisobotlarini
yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi
subyektlarni to'liq qamrab olinishini
ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish
Reglamentiga
1-ILOVA

**Hisobot topshiruvchi subyektlar tomonidan _____ shakli
bo'yicha hisobotlarni bazaviy hisobot ko'rsatkichlarini to'ldirmasdan
taqdim etilishi sabablari to'g'risida ma'lumot**

STIR kodi	MHOBT kodi (10 raqam)	Tashkilotning nomi	Hisobot ko'rsatkichlarini to'ldirmaslik sabablari	Ko'rilgan choralar

Statistika hisobotlarini
yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi
subyektlarni to'liq qamrab olinishini
ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish
Reglamentiga
2-ILOVA

_____ shakli bo'yicha hisobot ma'lumotlarini
taqdim etmagan tashkilotlar bo'yicha
tahliliy ma'lumot

20__ yil "____" _____ holatiga

Hudud nomi	Maqsadli jamlanmaga kiritilgan tashkilotlar soni	Hisobot ma'lumotlarini taqdim etganlar	Hisobot ma'lumotlarini taqdim etmaganlar*			Hisobot olinishi lozim
			Tugatilganligi sababli (KTYaDR ma'lumotlariga asosan)	Faoliyat ko'rsatmayotgani sababli (KTYaDR ma'lumotlariga asosan)	DSQ MB ma'lumotlariga asosan faoliyat ko'rsatmayotganlar	

**Hisobot ma'lumotlarini taqdim etmaslikning boshqa sabablari aniqlanganda, ushbu jadvalga qo'shimcha ustun kiritilishi mumkin.*

Statistika hisobotlarini
yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi
subyektlarni to'liq qamrab olinishini
ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish
Reglamentiga
3-ILOVA

Statistika hisoboti shakllarini taqdim etish holati to‘g‘risida tahliliy ma’lumot

20__yil “____” _____holatiga

[illegible]